
№4 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL




2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№4 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

YALDO KECHASI ANANAVIY TAQVIM MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI

Qurbonova Manzila
Buxoro davlat universiteti professori,
tarix fanlari nomzodi

Bobojonov Shavkat
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot
instituti, Etnofolklor laboratoriya mudiri,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dosent

Annotasiya: Maqolada Turon va Eron xalqlarining qadimiy bayramlaridan biri hisoblangan eng uzun tun - Yaldo kechasini o‘tkazish bilan bog‘liq marosimlar, aholining yaldoga doir tasavvurlari, etiqodiy qarashlari, yaldoning sodir bo‘lishi bilan bog‘liq astronomik hodisalar, uning o‘tmish tarixi va bugungi kundagi holati tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar asosida etnografik nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: eng uzun tun, quyosh xudosi – Mitra, qish bayrami, qish inqilobi, dehqonchilik taqvimi, yaldo dasturxoni, anor, tarvuz, hofizxonlik, sevishganlar kechasi, qor xat.

ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННОГО КАЛЕНДАРНОГО ОБРЯДА «НОЧЬ ЯЛДО»

Аннотация: В статье с этнографической точки зрения проанализированы обряды, связанные с празднованием самой длинной ночи — ночи Ялда, которая считается одним из древнейших праздников народов Турана и Ирана. Рассмотрены представления населения о Ялде, религиозные воззрения, астрономические явления, связанные с её происхождением, её историческое прошлое и современное состояние, на основе исторических источников и научной литературы.

Ключевые слова: самая длинная ночь, бог солнца - Митра, зимний праздник, зимная революция, земледельческий календарь, дастархан Ялда, гранат, арбуз, хофизхонлик, ночь влюбленных, снежное письмо.

ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF THE TRADITIONAL CALENDAR RITUAL “YALDA NIGHT”

Abstract. The article explores, from an ethnographic perspective, the rituals associated with the celebration of the longest night of the year - Yalda Night, regarded as one of the most ancient festivals of the peoples of Turan and Iran. It examines the population's perceptions of Yalda, their religious beliefs, astronomical phenomena linked to its origins, as well as its historical background and present-day significance, drawing on historical sources and scholarly literature.

Key words: the longest night, god of sun – Mitra, winter festival, winter solstice, agricultural calendar, Yalda tablecloth, pomegranate, watermelon, Hafiz poetry, lovers' night, snow letter.

KIRISH

Dunyo yaralibdiki u o‘z qonuniyatlari asosida boshqariladi. Tunu kun, oy va fasllar almashinuvi barchasi koinot jismlari harakati asosida amalga oshadi. Aslida bularning hammasi taqvim bilan bog‘lib bo‘lib, xronologiya va astronomiya fanlarida chuqur tadqiq etiladi. Vaqt bilan bog‘liq ana shunday muhim sanalardan biri, qishning eng uzun va eng qorong‘u tuni Yaldo kechasidir.

Yilning eng uzun va qorong‘u kechasi yaldo kechasi hisoblanadi[10:414]. Bunday hodisa yilda bir marta kuzatiladi. Avvalo bu astronomik hodisa qanday ro‘y berishi haqidagi aniq faktlarga to‘xtalsak. Tabiatning mazkur ajoyib hodisasi 21 dekabrdan 22 dekabrga o‘tar kechasi kuzatiladi. Bilamizki, Yerning ekvator chizig‘i bo‘lgani kabi, osmonning ham ekvatori bor. Yer ikki qismga bo‘linadi: janubiy yarim shar va shimoliy shar. Quyoshning osmon ekvatoridan janubiy yarim sharga eng uzoqlashgan paytida Yerda eng uzun tun kuzatiladi va bu 21 dekabrga to‘g‘ri keladi. Mazkur eng uzun tun qariyb 17 soat davom etadi. Quyosh osmon ekvatoridan uzoqlashsa Yerda tunlar uzayadi, aksincha bo‘lsa kunlar uzadi. Agarda ekvator chizig‘iga kelib, 0 ga tenglashsa tengkunlik bo‘ladi. Shuning uchun, bahorgi tengkunlik 21 mart, kuzgi tengkunlik 22-23 sentyabr, eng uzun kun 23 iyun, eng uzun tun esa 21 dekabrga to‘g‘ri keladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Yaldo kuzning eng so‘nggi kuni va qishning boshlanishi hisoblanadi. Yaldo so‘zi suryoniy tildan olingan bo‘lib, “tug‘ilish”, “yangilanish” manosini bildiradi. Qishning birinchi kunida quyosh chiqqanidan keyin kechalar davomiyligi asta-sekin qisqaradi va kunlar esa uzayadi. Malum manoda yer qayta tiklanadi.

Arxeologlar Yaldoning tarixi bundan yetti ming yil oldingi uzoq davrlarga borib taqalishini taxmin qilishgan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra esa, Yaldo kechasi miloddan avvalgi 500-yil va uning Doro I davrida qadimgi forslarning rasmiy taqvimiga kiritilgan sanasi bilan bog‘liq.

Yilning eng uzun tunini qadimgi oriylar kechki bayram qilishgan. Zardushtiylardan davom etib kelayotgan yaldo tunini nishonlash marosimini qadimiy eronliklarning quyosh xudosi Mitra (Mexra)ning tug‘ilishiga atab o‘tkazishgan. Qadimgi xalqlar tasavvurida tun soat 12 da quyosh xudosi – Mitra duyonga kelgan va uning sharafiga bayram qilingan.

Hamma narsaning buyuk yaratuvchisi Ahuramazda uyg‘unlik va adolatning asl umumbashariy qonuni – Ashani o‘rnatdi. Har bir inson u bilan hamjihatlikka yashashga intilishi kerak. Dunyoda Anxra Maynyu boshqaradigan qora kuchlar ham bor. Zardushtiylik talimotiga ko‘ra, bir kuni, yilning eng uzun va qorong‘u tunida, Anxra Manyyu va uning devlari misli ko‘rilmagan kuchga ega bo‘lganda, Mitra dunyoga keladi. Axuramazdaning o‘g‘li ming qulog‘i, ko‘zi bor Ashuning o‘zgarmas qonunini himoya qilish uchun o‘rnidan turadi va dunyo zulmatga cho‘kmaydi.

Yaxshi va kechirimli xudo Mitra oltin aravada yugurib, vahshiylik va illatlarni yo‘qotib, odamlarni haqiqat va adolat sari yetaklaydi. Qadimgi Forsda Mitra xudosining tug‘ilgan kuni Xorramruz deb atalgan. Keyin Ashur Mazda va Quyosh xudosi Mitra sharafiga madhiyalar aytilgan. Quyosh kultiga etiqod keng tarqalgani uchun yaldo tunida shamlar va ko‘plab chiroqlar yoqilgan. Katta gulxanlar orqali zulmat ustidan g‘alaba qozonishga harakat qilingan. Qish zahrini daf etish uchun olov alangalaridan foydalanilgan, tutatqilar tutatilgan[2:268]. Tun davomida rizq-baraka so‘rab, duolar qilingan.

Odamlar tong otguncha qo‘shiqlar kuylashgan, raqsga tushishgan, kambag‘allar uchun xayr-ehsonlar yig‘ilgan. Uylarda folbinlik mantlari yashiringan javdari nonlar pishirilgan. Fors tarixchisi Mahmud Gardiziyning qayd etishicha, zardusht kohinlari yaldo tunida loydan turli bayram timsollarini yasab, uylarining darvozalariga yopishtirishgan[16]. III-VII asrlarda Mitra kultiga etiqod Sosoniylar imperiyasida kuchli bo‘lgan. Keyinchalik imperiya qulab, Eronda islom dini keng tarqalgach, Yaldo bayramining mazmuni diniy bayramdan oilaviy, milliy bayramga aylanadi.

Ushbu tun “qishki quyosh bayrami” deb nomlangan. Qishning eng uzun tunini fors-tojiklar yaldo deb atashsa, turkiy xalqlar tilida nardurg‘on deb nomlashgan. Nardurg‘on turkiycha.nar/nor – anor, baraka va hayot daraxti manosini anglatgan. Yaldo turkiy va mo‘g‘ul xalqlarning mushtarak bayramidir. Aslida bu bayram dastlab shumerliklar, hindlar, so‘ngra eronlik va turonliklarga o‘tgan deb qaraladi. Mesopotamiyadagi ildizlariga qaraydigan bo‘lsak, eng uzun tun atrofida turli miflar yaratilgan. Qadimiy turklarning diniy ishonchlariga ko‘ra, kecha va kunduz o‘rtasida doimo kurash bo‘lib, eng uzun tun 21 dekabr bo‘lib, undan keyin kunlar uzayadi. Bu davrdan keyin chiqqan to‘linoy yangi yilning birinchi oyi deb atalgan[6].

Yaldo kechasi Abulqosim Firdavsiyning Shoxnomasida[14], Sadiy Sheroziyning “Bo‘stoni”da, Umar Hayyomning “Navro‘znoma” va Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida tilga olingan. Masalan, XII asr oxirlarida Sheroziy “Bo‘ston” asarida: “haqiqiy tong, Yaldo kechasidan keyin keladi”, - deb yozib qoldirgan. Dunyo tarixidagi eng mukammal xaritalardan biri sanalgan Umar Xayyom taqvimi (Malikshoh sharafiga “Jaloliy kalendari” deb ham yuritiladi)da ham bu kun aniq belgilab berilgan.

X asrda yashab ijod etgan donishmand va tarixshunos Masudiy “Al-tanbeh val-ashrof” kitobda yilni to‘rt faslga ajratdi va yilning uchinchi faslining oxirgi kechasini qish inqilobidan oldingi kecha yoki suryonlik “Konunul avval” oyning 22 kuni (dekabr oyning 22 yoki dey oyning 1 kuni) bilan to‘g‘ri kelishini bayon etadi.

Beruniy day oyining birinchi kunini “Xur” unvonida eslatib, ayrim manbalarda buni “Xurramro‘z” deb tilga olinadi. Bu bayramning kelib chiqish tarixi qish fasli yoki qish inqilobining boshlanishini ulug‘lash ananasi yoki “Xurramro‘z”, yani xursandchilik kechasi bilan tug‘ri keladi.

Abulqosim Firdavsiy manbalarga tayanib “Xurro‘z” va Yaldo kechasining nishonlashini eron podshohlaridan bo‘lmish Hushang nomiga nisbat beradi.

Yaldo tuni turli xalqlar va madaniyatlar vakillari, yani, tatar, ruslar, eroniylar, tojiklar, afg‘onlar, turkmanlar, qozoq va azarbayjonlarni birlashtiradigan marosimdir[4]. Umuman olganda, marosim sharq xalqlari ijtimoiy-manaviy hayotida muhim o‘rin tutgan.

Yaldo tuni “Milodi Akbar”, “Quyoshning tug‘ilishi” deb ham nomlanadi. Eronliklar, tojiklarda bu tunni “shabi Yaldo”, “shabi chilla”, yani “chilla kechasi” deb ham aytiladi. Sababi, bu tundan keyin qishning birinchi qirq kuni - “katta chilla”si (chillai buzurg, chillai kalon), undan keyin esa ikkinchi yigirma kunlik “kichik chilla”si (chillai xurd) boshlangan. Xalq tajribasida qishning eng sovuq kunlari ham ayni shu davrda aniqlangan. Yani 30 yanvar kunidan boshlab Sada bayramiga tayyorgarlik ko‘rilgan. Sada fors tilida yuz manosini anglatuvchi bayram Navro‘zga 50 tun va 50 kun qolganini bildirgan. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida eronlik oylaridagi hayitlar va mashhur kunlar haqida so‘z yuritib, baxman moh oyida nishonlanadigan Sada(ro‘zi obon)ni xayit bayrami deb takidlaydi[2:268].

Yaldo kechasini bazi xalqlar Navro‘z, Mehrjon va Sada bayramlari sifatida jamoa bo‘lib nishonlagan. Sada eronliklarning quyosh taqvimi bo‘yicha o‘n birinchi oyi – braxmaning uchinchi kunida bayram qilingan[1:16] Sada Navro‘zdan 50-55 kun oldin kelgani uchun xalq orasida “Iydi day” (Qish bayrami) deb ham yuritilgan[15:76]. Eron xalqlari turmushida yaldo Navro‘zdan keyingi muhim va qadimiy bayram sifatida nishonlangan.

Yaldo kechalarini insonlar zoriqib kutishgan. Qish kezlari hafta sayin gap-gashtak tashkil etilgan, davraga to‘planganlar shirin suxbatlar qurishgan, sandal atrofida jam bo‘lib palov yoki norin tanovvul qilishgan. Yaldo dasturxoniga alohida hozirlik ko‘rilib, u “sufrai yaldo”, “sufrai chilla”, “dasturxoni yaldo” deb atalgan. Yaldo kechalarida gap-gashtak o‘tkazilgan xonadon sohiblari mehmonlarni to‘kin dasturxon tuzab, kutib olishgan. Qo‘y so‘yilib, tandir nonlar yopilgan. Hayvon va parranda go‘shtidan tansiq taomlar tayyorlangan. Marosim uchun sabzi palov (guruch va baliq ko‘kat bilan aralashtirilgan) hamda oshi rishta (halim, mo‘g‘ul halim deyilgan) maxsus pishirilgan[17]. Qishga asralgan qovun-tarvuzlar, uzum-anorlar omborlardan olib chiqilib, dasturxonga peshma-pesh tortib turilgan. Shuningdek, dasturxondan xurmo, asal, turshak, jiyda, yong‘oq, bodom va xashbarg (quruq mevalar) ham o‘rin olgan. Bularning hammasi baraka, sog‘lomlik va xursandchilik timsoli sanalgan. Dasturxonda mevalardan albatta anorning bo‘lishi shart edi. Chunki anor quyoshga qiyoslanib, unumdorlik, hosildorlik, farovonlik, to‘kin-sochinlik ramzini ifodalagan. Zardushtiylik mabudalaridan Anaxita ham qo‘lida anor shoxchasini ushlab turgan holda tasvirlangan bo‘lib, bu holat anorning hosildorlik ramzi sanalishiga ishoradirp[3:277].

Sheriyatda anor haqida juda ko‘plab chistonlar yaratilgan. Chistonlar kishini o‘ylashga, fikrlashga, hayotda hushyor bo‘lishga undaydi. Odamning aqlini charxlaydi, fikr va bilim doirasini kengaytiradi. Chistonlardan birida anor quyidagicha tariflanadi:

Eshiksiz bir xona – ichida xor on
Yuzlari pardali go‘zallar pinhon
Lali lablar uchun munosib laldir
Ko‘rgan deydi: “Qarang ajoyib marjon”[9:81]

Xalq etiqodida Yaldo tunini “Quyoshning tundagi vakili” deb tasavvur qilishgan. Tun soat 12 da tarvuz teng ikkiga bo‘lingan va uni quyoshga qiyoslashgan. Qizil rangga ega tarvuz va anorni istemol qilish ramziy odatga aylangan. Dasturxondagi nozu nematlarning har biri o‘z ramziy manosiga bo‘lgan. Tarvuzning aylana shakli va qizil rangi orqali mitraizm ananalariga hurmat ifoda etilgan[5]. Shuningdek, tarvuz hosil paytidagi issiqlikni eslatsa, anor va uning donalari nasl davomiyligi, serfarzandlikni bildirgan. Anor donalari serfarzandlikka ishora deb tushunilgan. Qizil rang tong shafaqi, hayot yorqinligi ramzi ekan, shu sabab quyosh nurlariga murojaat qilishgan. Shuning uchun ushbu tun yorug‘lik va nurga talpinish, quyoshni ulug‘lash kechasi sifatida qabul qilingan.

Qishning sovuq va rutubatli kunlarida anorni istemol qilish natijasida inson tanasida quyilib qolgan qonlar suyilib, vujudda qon aylanishi yaxshilanadi va o‘zini tetik, sog‘lom his etadi. Buyrakdagi toshu qumlarni tushirish uchun esa miriqib

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

tarvuzxo‘rlik qilishgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) anor fazilati haqida gapirib: “Har kim anor yesa, ko‘ngli ravshan bo‘lur. Alloh taolo qirq kungacha shaytonning vasvasidan omon tutur”[8:19], deganlar. Bundan tashqari, sog‘lik uchun eng foydali bo‘lgan qovun istemol qilishga alohida etibor qaratilgan. Dasturxondagi yog‘li holvalar va shirinliklar qish kunlarida inson tanasiga issiq haroratni baxsh etadi.

Professor Maxmud Hasaniy xotiralarida otasi Maxdum Vosiliy (Mulla Hasanjon ibn Mulla Muhammad Ibrohim, 1898–1979) Buxoroda Mir Arab madrasasida o‘qib yurgan kezlari (1920 yillar) talabalar bilan tarvuzxo‘rlik qilganini takidlaydi. Yaldo tunida tarvuz istemol qilish odatiga hozirgacha amalga qilingan.

Sharqshunos, shoir va tarjimon Maxmud Hasaniy sherlaridan birida Yaldo tunidagi tarvuzxo‘rlikni quyidagicha tasvirlaydi:

Tarvuzning bag‘rida yoquti ahmar*,
Quyoshdek charog‘on Yaldo tunida.

Tarvuz bilan kirib keladi do‘stlar,
Tarvuz misoli kon Yaldo tunida.

Tomog‘i sog‘larga deymiz, tarvuz ye,
Sog‘liqqa imtihon Yaldo tunida.

Qonimiz suyular tarvuz suvidan,
Tomirda qon ravon Yaldo tunida.

Buyrakni tark etar qum ila toshlar,
Deydilar "al-amon"** Yaldo tunida.

Toshlarni yanchadi tarvuz sharbati,
Go‘yoki tegirmon Yaldo tunida.

Tarvuzga qo‘rqmayin pichoq solar do‘st,
Misoli qahramon Yaldo tunida.

Yaldo qorong‘ulik ustidan yorug‘likning, yovuzlik ustidan ezgulikning g‘alabasi kuni hisoblanadi. Qadim zardushtiylik etiqodida ham ezgulik kuchlari quyosh nuri va olov bilan, yovuzlik kuchlari esa tun va zulmat bilan gavdalanadi. Shuning uchun yaldo kechasida ig‘vo, g‘iybat, gina-qudrat qilishga mutlaqo yo‘l

* Ёқути аҳмар – қизил ёқут, бу ерда тарвузнинг қизил эти назарда тутиляпти.
** Ал-амон – омонлик беринг, қутқаринг, деб дод солиш.

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

qo‘yilmagan. Ahil-inoq ulfatlar kecha davomida iqtisodiy jihatdan qiynalgan oilalarga yordam qilish, to‘y va marakalarni tashkil etish haqida maslahatlashishgan. Yaldo kechasida keksalar, o‘rta yoshlilar va yoshlar alohida yig‘ilishib, suhbat qilishgan. Xotin-qizlar ham o‘z tengqurlari bilan ko‘ngil ochishgan. Ular g‘azalxonlik qilishgan, bahru-bayt aytib, mushoiralar o‘tkazishgan. Bu tun qissaxonlik, Hofizxonlik, Sadiyxonlik, Bedilxonlik, Rumiyxonliklar bilan o‘tkazilgan. Shuningdek, raqs tushishib, qo‘shiqlar xirgoyi qilishgan, dutor-doira chalib, o‘yin-kulguni qizitishgan. Mahalla choyxonalarida ham Yaldo kechasi o‘tkazilib, gap-to‘qma tashkil etilgan. Bunday gap-to‘kmalarga sayyoxlar, boshqa yurtdan kelgan musofirlar, olimu fozillar, shoiru qalandarlar qatnashgan. Kishilar ularning suhbatlaridan dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklarni bilib olishgan. Xalq ashulachilari “Gulyoraxon-gulyora” kabi qo‘shiqlarni aytib, o‘yinga tushishgan. Beruniyning malumot berishicha, yaldo kechasida yoqilgan olovlarda yovvoyi hayvonlarni tashlash, alangalar ichiga parrandalarni uchirish va olov atrofida ichimliklar ichib, o‘yin kulgi qilish podshohlar marosimiga aylangan edi[2:269].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaldo kechasi hozirgacha eronliklar orasida alohida o‘rin tutadi. Ushbu uzoq tunni qarindoshlari va oila azolari davrasida juda quvnoq o‘tkazishadi. Ular Chor darvesh, Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sini o‘qish, Hofiz Sheroziy devoni bilan fol ochish, doston va ertaklar aytish bilan tunni tongga ulashadi. Bundan tashqari, kitob mutolaasini odatga aylantirish uchun kimdir kitobni qo‘lga olganda, ko‘zni yumib turib, nimadir istab go‘yo niyat qilib, kitobni ochib ko‘rsatkich barmoqni biror baytga bosgan. Uning mag‘zini chaqishgan va ezgu niyat qilishgan. Bu anana hozirgacha eronliklar orasida saqlanib qolgan. Shuningdek, marosim ishtirokchilari yong‘oqni tanlab, uning ichi puch yoki to‘liq bo‘lgani bilan o‘z kelajaklarini bashorat etishgan.

Yaldo kechasi eng uzoq tun bo‘lgani uchun “Sevishganlar kechasi”, “Oshiqlar kechasi” ham deyilgan[12:459]. Yaldo kechasi sharq sheriyatida ham alohida takidlagan. Bu kecha oshiqlar o‘z yorlariga sovg‘a-salomlar, shirinliklar hadya etishgan. Buyuk fors shoiri Sadiy Sheroziy aytganidek:

“hanuz bo hama dardam umedi darmon ast,
Ki oxire buvad oxir shaboni yaldoro”.

tarjimasi: “shunchalik dardim ko‘p, ammo darmon umididaman, Zero, yaldo tuni ham oxir-oqibat tongga ulanadi”. Yoki yana bir joyda “yuzingga qarash – Navro‘z, sen bilan o‘tgan oxirgi kecha - Yaldo”, - deb takidlagan. Mumtoz sheriyatida bazan fors go‘zallarining sochlari Yaldo bilan qiyoslanadi va shoirni sehrlab qo‘yadi.

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

Qish faslining ushbu bayramini dehqon va chorvadorlar ham keng nishonlashgan. Bayram “inqilobi zimiston” (qish inqilobi) deb nomlangan. Ayni bu davrda dehqonchilik taqvimiga muvofiq chilla davriga to‘g‘ri keladi va yer uxlab, dam oladi. Yaxshi muzlab dam olgan yer, erta bahorda unumdor va serhosil bo‘ladi. Yetishtiriladigan hosil barakasi, chorvachilik rivoji ko‘p jihatdan chilla ob-havosiga bog‘liq. Zero, yomg‘ir – baraka, qor – rizq, demakdir. Kuzatuvlarga qaraganda, yurtimizda ayni shu pallada yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lar ekan. Zero, shu kunlarda yoqqan qor dehqonlarimiz uchun ayni muddao. Chunki u kuzgi bug‘doy maysalari ustini ko‘rpadek qoplab, ekinni qahratonning izg‘irinlaridan asrarkan. Shudgor qilingan yerlarda qorning singuvchan suvlari nam saqlab, ozuqa vazifasini o‘taydi. Eng muhimi, qishlovchi zararkundalarga qiron keltiradi. Keksalarimiz duoga qo‘l ochganda bekorga “Qish qishday bo‘lsin” deyishmagan. Xalq etiqodida yaldo kechasi “Rizq va baraka” bo‘lib, Allohning izni bilan maloyikalar rizq va nasibalar taqsimlashar ekan.

Yaldo tunida birinchi qor yog‘sa, hamma bir biriga qor xatlar yozgan. Qishda birinchi qor yog‘ishini xalqimiz etibor bilan qarshilagan. Chunki bu tabiat hodisasi faslda keskin o‘zgarish ro‘y berishi va sovuq kunlar boshlanishidan darak beribgina qolmay, inson ruhiyatida ham muayyan evrilishlar mavsumini boshlab bergan. “Qor xatda” maktub mo‘ljallangan kishining oilasiga sog‘lik-omonlik, tinchlik-totuvlik va baraka tilangan[7:66]. Qorxatlarning birida shunday keltiriladi:

Hazonrez bog‘larda sovuq uvullar,
Qish elchisi sepib ketibdi shakar.
Yuzlari burishib, titraydi gullar,
Daraxtda chumchuqlar izillar sahar.
Yaproqlar yerbirin to‘kilar duv-duv,
Huddi mening ko‘nglim singari nisor.
Marjondek ilingan anor, xurmolar,
Shoxlarni quchoqlab, osilar zor-zor.
Archalar shoxida kibor va viqor,
Sumalak ko‘zida qator-qator yosh.
Kuzni kuzatmoqda bu birinchi qor,
Ko‘kda jilmayadi shashti past quyosh.
Qorxatimda tiladim omonlik-omon,
Qordan qog‘oz qildim, qalamim tuproq.
Odamzot yasharkan niyat-la har on,
Fasllar almashmog‘in ko‘ray deb ko‘proq.

Yaldo kechasini turli davr shoirlari, xususan, Xo‘jai Kirmoniy, Abid Zokoniy, Fayz Koshoniy, Vaxshi Vofqiy, Furug‘i Bastomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Iqbol

Lohuriy va boshqalar go‘zal misralar orqali tasvirlashgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy:

Ey xush on otashi raxshanda k-az oinai subh,
Mebarat shulai on zangi shabi yaldoro

Tarjimasi:

Ey o‘shal porlovchi nurki, tong ko‘zgusi shulasi orqali yaldo kechasi zangi (g‘ubori)ni oladi.

XII asrda yashagan shoir Hoqoniy shunday deydi:

Gar on Kayxusrav ayvoni nur ast,
Charo Bejan shud andar chohi yaldo

Tarjimasi:

Gar o‘shal Kayxusrav nur ayvonidir,
Nega Bejan[1] yaldo qudug‘iga tushib qoldi.

Yoki yana tariflashicha,

Hama shabhoi g‘am obistani ro‘zi tarab ast,
Yusufi ro‘z ba chohi shabi Yaldo binand.

Tarjimasi:

G‘amgin kechalar ortidan faraxbaxsh kunlar keladi
Yusufga o‘xshash chiroyli kun Yaldo tunidan keyin keladi.

Shoir Hidoyat esa yilning uzun tunini go‘zal pariga qiyoslaydi:

Gar soli agar shabi est yaldo,
Dar yak mahi on sanam du yaldost.

Tarjimasi:

Gar yilda bir kecha yaldo bo‘lsa,
Sanamimning oy yuzida ikki yaldo bor.

Mazkur sherda shoir yaldoni yorining go‘zalligiga qiyoslagan. Yani yuzidagi ikki yanog‘ini yaldoga o‘xshatib, birmas ikkita ekanligi bilan zavqlanadi. Yaldo kelishini kutib turishim shartmas, u mening doim yonimda deb, o‘z yoriga ishora qiladi.

Forslarning shoiri Sadiy Sheroziy tariflashicha:

Nazar ba ro‘yi tu har bomdod Navro‘zest,
Shabi firoqi tu har shab, ki hast, Yaldoyest.

Tarjimasi:

Sening jamolingga tong otar payti nazar solish Navro‘zdir
Firoqing kechasi Yaldo kechasiday qora va uzundir.

[1] Бежан Афросиёбнинг Манижа исмли қизига уйланган куёви. Афросиёбнинг 2 қизи, 5 ўғли бўлган

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

XVI asrning yirik shoiri Ubaydi Zokoniy buni o‘zgacha tasvirlaydi:

Bo zulfi tu qissa est moro mushkul,
Xamchun shabi yaldo ba darozi mashhur.

Tarjimasi:

Sening soching haqinda uzun bir qissa borkim,
Yaldo kechasining uzunligiday mashhur[13:634].

Ushbu misralarda suluvlarning qop-qora va uzun sochlari yaldoga qiyoslanadi. Sochning go‘zalligi, maftunkorligi sehrli yaldo tuniga o‘xshatiladi.

Bugungi kunda asosan Eron, Afg‘oniston, Tojikiston va Ozarbayjonda yaldo tuni bayram qilinadi. 2008 yildan buyon Yaldo tuni Eronning milliy bayram sifatida qabul qilingan. Tehron shahridagi Guliston saroy muzeyining Ayaz qasrida joylashgan Etnologiya muzeyida Yaldo kechasiga bag‘ishlangan alohida ekspozisiya mavjud **(1-rasm)**. Ekspozisiyada to‘kin dasturxon atrofida yaldoni nishonlab turgan eronliklar oilasi tasvirlangan[2].

2022 yilning 28 noyabr – 3 dekabr kunlari Marokkoning Rabot shahrida bo‘lib o‘tgan YuNESKOning 17-sessiyasida 48 ta yangi elementlar qatorida yaldo kechasi bilan bog‘liq qadriyatlar insoniyatning nomoddiy merosi ro‘yxatiga kiritilgan[11].

Yaldo tuni insonlarga qish qahratonlaridan saqlanish, unga tayyor va hushyor turishni o‘rgatgan. Tuni bilan yoqilgan gulxanlar, shamlar orqali havo haroratini yaxshilashga, zax va sovuq kunlardan sog‘-omon qutulishga ishonchni oshirgan. Inson tabiatning ajralmas bir bo‘lagi. Shunday ekan, tabiat injiqliklariga sabr qilish, uni yengish barobarida, u bilan kelishib, murosa qilishga majbur.

Avesto talimotiga ko‘ra ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal ustuvor ekan, yaldo tunida odamlar qora, chirkin niyatlarga yo‘l qo‘yilmay, shirin suhbatlar, yaxshi tilaklar orqali zulmat kechani charog‘on qilishga harakat qilishgan, dillarni xushnud qilish orqali tunni qalb quyoshi bilan yoritishgan, qalb harorati bilan isitishgan.

Fasllar almashinuvi, ob havoning o‘zgarib turishiga qarab taom tanovvul qilishni donishmand xalq o‘z tajribasida sinagan. Sharq tabobatidan yaxshi xabardor ekanligi ularni qishning sovuq kunlaridan sog‘-salomat chiqishiga yordam bergan. Foydali, vitaminlarga boy, shifobaxsh ichimliklar, quruq mevalar va tansiq taomlar tanovvuliga jiddiy etibor berilgan.

Yaldo kechasida tuni bilan o‘tkazilgan mushoiraxonliklar, qissaxonliklar, tarixdan qilingan ilmiy-marifiy suhbatlar marosim ishtirokchilari, ayniqsa, yosh

[2] Эроннинг Шахид Чамран университети тадқиқотчиси, бухоролик олим Ўктамали Равшановнинг мазкур музейдаги кузатувлари асосидаги маълумотлари.

avlodni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘tmishdan xabardosh qilishga xizmat qilgan.

Xalqimizning yaldo tuni va uning bilan bog‘liq qarashlari va etiqodlarini o‘rganish masalasi turli mutaxassislar – tarixchi, arxeolog, etnolog, tilshunos, folklorshunos, sanatshunos, astronomlardan hamjihatlikda va fanlararo yondashuv asosida keng tadqiq etishni talab etadi.



1-rasm.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirov A. “Avesto”dan meros marosimlar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2001. – B.16. (32)

2. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968. – B.268. (488)

3. Davlatova S. O‘zbek ananaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B.277. (368)

4. Древнеиранский праздник "Ялда" отметили в КФУ (Казанский федералный университет)/ https://kpfu.ru/imoiv/prazdnik-noch-yalda-proshel-v-imo-442529.html 19 декабр 2023 г.

5. Долгая ночь. Сегодня отмечается праздник зимнего солнцестояния Шаби Ялдо // https://centrasia.org/newsA.php?st=1734803520.

6. Jumaniyozova F. Bugun Nardurg‘on kuni. U Eron va Turon xalqlarining qishki yangi yilini ifoda etgan // oyina.uz. 2024 yil 21 dekabr.

7. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2008. – B.66.

8. Yo‘ldoshev N. Hojatbaror Imom Abu Hafz Kabir Buxoriy. – Buxoro, 1994. – B.19. (31)

9. Manaviyat javohirlari. Rivoyat va asotirlar, muxammaslar, ruboiylar (to‘plovchi Muharrambegim Yusupova). – Buxoro: Durdona, 2014. – B.81.

10. Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos ul lug‘ot. Childi 2. (Tahiyai matn bo peshguftor, mulhaqot, tavzehot va fehristi Amon Nurov). – Dushanbe: Adib, 1988. – Cah.414. (416)

11. Новые элементы, включенные в списки Конвенции ЮНЕСКО по сохранению нематериального культурного наследия // https://unesco-iicas.org/ru/press-office/News. 02.12.2022.

12. Узбеки / отв. ред. З.Х. Арифханова, С.Н. Абашин, Д.А. Алимова; Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н.Миклухо-Маклая РАН; Ин-т истории АН Республики Узбекистан. – М.: Наука, 2011. – С.459. (688)

13. Farhangi zaboni tojiki (Tuzuvchi T.N.Zehniy va boshqalar). II qism. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969. – S.634 (967)

14. Firdavsiy A. Shohnoma: saylanma / nashrga tayyorlovchi H.Homidiy. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. – 188 b

15. Homidov H. “Avesto” fayzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2001. – B.76. (96)

16. https://centrasia.org/newsA.php?st=1734803520 21.12.2024.

17. https://fa.wikipedia.org/wiki/

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI Elov Ziyodullo Sattorovich	6
OILADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	14
MUSTAQILLIKNING 35 YILI: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA XALQCHIL-PROFESSIONAL XIZMATNING YANGI BOSQICHI Tursunova Ozoda Abdullayevna	22
ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA YANGI BOSQICH: TA'LIM SIFATI, INNOVATSION YONDASHUVLAR VA DUAL TA'LIM INTEGRATIV MODELI Shermatova Nazokat Safarovna	28
AXBOROT ISTEMOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI (TALABALAR MISOLIDA) Ramazonov Jahongir Djalolovich	34
O'SPIRINLARDA KIBERBULLINGNING PROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSION IMKONIYATLARI Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	46
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	56
O'SPIRINLIK YOSHI DAVRIDA SUITSIDAL XULQ MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI Sadilloyev Odiljon Oripovich	63
JAZO MUDDATINI O'TAYOTGAN SHAXSLARGA TA'SIR ETADIGAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRLAR Manzitov Baxtiyor Tolibovich	72

BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNI PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA ZAMONAVIY PSIXOMETRIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH **Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li**	**79**
TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI: TIZIMLI, KOMPETENSIYAVIY VA FAOLIYATLI YONDASHUVLAR **Baydjanov Bekzod Xaitboyevich**	**91**
O'QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI **Axmedova Gavhar Faxriddinovna**	**101**
QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI BILAN BOG'LIQ QO'SHIQLAR VA ULARNING ANTROPOLOGIK TAHLILI **Davlatova Saodat Tilovberdiyevna**	**109**
YALDO KECHASI ANANAVIY TAQVIM MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI **Qurbonova Manzila.,** **Bobojonov Shavkat**	**120**
BUXORO MODDIY MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISHDA OBIDALARDAGI ASTRONOMIK BELGILARNING O'RNI **Tuksanova Zilola**	**132**
QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ ERTAKLARIDA OBRAZLI NUTQNING MILLIY MODELLARI: FRAZEOLOGIZM, RANG VA MAISHIY TIMSOLLAR **Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna**	**138**
INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI **Koyshekenova Tatyana Kenesarievna**	**144**
LINGVOSEMIOTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI **Nurmatova Sadbarxon Erkinovna**	**151**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/